



O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASINING TIPOLOGIK TALQINI

Ibragimova Saodat Muxsinovna

Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyi, katta
o'qituvchisi

saodat19111980@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7970834>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-May 2023 yil

Ma'qullandi: 23-May 2023 yil

Nashr qilindi: 25-May 2023 yil

KEY WORDS

agglutinativ tillar, yevropa tillari, adabiy til, lug'aviy birlik, shakldoshlik, ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, hind-yevropa tillari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tiliga rus tilidan o'zlashgan so'zlar hamda tilimiz leksikasi tarkibidagi ruscha-baynalminal so'zlar ilmiy-texnikaviy adabiyotlarda ham, og'zaki nutqda ham faol so'zlar qatorida qo'llanilishi o'rni va ahamiyati berilgan. Shuningdek, o'zlashma so'zlar bilan rus tilidagi aynan shu so'zlar o'rtasidagi ma'lum farqli jihatlar to'g'risida mulohazalar keltirilgan.

O'zbek va rus tillari leksikasi, eng avvalo, bu tillarning genetik jihatdan turli oilalarga mansubligi bilan farqlanadi. O'zbek tili tipologik jihatdan ko'plab olimlar tomonidan barcha agglutinativ tillar qatorida oltoy tillari oilasi qamroviga kiritilgan bo'lsa-da, genetik jihatdan u alohida bir oilani tashkil etgan turkiy tillar guruhiga kiradi. Tilimiz lug'aviy boyligining asosini umumturkiy va o'zbekcha so'zlar tashkil qiladi. Aytish joizki, rus tili ham tipologik, ham genetik jihatdan hind-yevropa tillari oilasining slavyan guruhiga mansub bo'lib, uning asosini umumslavyan va qadimgi rus so'zlari tashkil etadi. Har ikkala til leksikasi tarixiy taraqqiyoti davomida turli hodisalarga uchragan, ularning lug'aviy tarkibini ham har xil tillardan o'zlashgan so'zlar tashkil qiladi. Masalan, o'zbek tilida fors-tojikcha va arabcha so'zlar ko'p uchraydi, rus tilida esa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar talaygina. O'zbek tili leksikasi asosan:

- umumturkiy so'zlar (*men, biz, bosh, tog' bir, ikki, ona, ota...*)
 - o'zbekcha so'zlar (*ishchi, ishla, tinchlik, yoshlik, jangchi, bilim...*)
 - arabcha so'zlar (*axborot, maktab, madaniyat, adabiyot, haqiqat...*)
 - fors-tojikcha so'zlar (*oftob, gul, dastro'mol, dutor, daraxt...*)
 - o'zlashma so'zlar (*samolyot, kompyuter, roman, dizayner, avtobus, trolleybus, drama...*)
- kabi qatlamlardan iborat.

Rus tilining leksik qatlamlari:

- umumslavyan so'zlari: *дом, город, голова, мать, отец, брат, день...*
- qadimgi rus tillari: *галка, снегопад, добрый, потолок...*
- asl ruscha so'zlar: *учитель, водитель, зарплата, раздевалка, зажигалка...*
- boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar: *кофта, булка (polyak), арбуз, казна (turkiy),*

грамота, лавр (grek), *иллюзия, компот* (fransuz), *вокзал, трамвай* (ingliz), *опера, дуэт* (ispan), va h. k.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolaning tahliliy jihatlarini yoritishda Azizov O. Safaev A. Jamolxonovlarning “O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi” kitobi hamda . T., Kissen I.A.ning “Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков” o‘quv qo‘llanmasidan foydalanildi. Shuningdek, morfologik, fonetik, semantik tafovutlarni aniqlashtirishda Mahmudov N., Nurmonov A.larning “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”, Rahmatullaev Sh. “O‘zbek va rus tillarini qiyoslash” va Reshetov V.V., Reshetova L.V.larning “Rus tili grammatikasi” nomli adabiyotlar tadqiq qilindi. Shunga ko‘ra maqola tadqiqi jarayonida tarixiy-genetik, ijtimoiy-madaniy, leksik-semantik, komponent, kontekstual, kognitiv-diskursiv, statistik kabi tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbek tiliga tarixiy davrlarda, ya‘ni XX-asr boshlariga qadar kirib kelgan ruscha so‘zlar ma‘lum fonetik o‘zgarishlarga uchrab, o‘zbekchalashib ketganligi uchun talaffuziga ko‘ra asl o‘zbekcha so‘zlardan farq qilmaydi hamda yozuvda talaffuzga mos tarzda ifodalanadi. Bunga *cho‘t, cho‘tka, adyol, qulupnay, rom, cherkov* kabi so‘zlar misol bo‘ladi. Bu talaffuzlar hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun me‘yor hisoblanadi. Biroq nisbatan keyinroq tilimizga kirib kelgan so‘zlar o‘zbeklar nutqida qanday talaffuz etilishidan qat‘iy nazar, adabiy tilda rus tilidagi fonetik strukturasi saqlab qolgan: *[istol] stol, [ustul] stul, [ishkop] shkaf, [duxtir] doktor, [melisa] militsiya, [moshin] mashina, [banka] bank* va hokazo.

O‘zlashma so‘zlar asosida o‘zbek tilida qo‘shimcha qo‘shish orqali bir qancha yangi so‘zlar ham yasalgan: *traktorchi, kursdosh, gazlashtirish, samolyotsozlik, kostumbop, sportchi, kompyuterchi* va hokazo. Bunday so‘zlar negizidagi fonetik va orfografik xususiyatlar ham rus tili me‘yorlariga mos keladi.

Rus tilining leksik tarkibida ham o‘zbekcha, fors-tojikcha va arabcha so‘zlar mavjud bo‘lib, ularning deyarli barchasi fonetik o‘zgarishga uchragan, shu sababdan bunday so‘zlarning o‘zbek va rus tillaridagi talaffuzi hamda yozilishi o‘rtasida ma‘lum tafovutlar ko‘rinadi: *арбуз, арка, товар, казна, урюк, инжир, кишлак, карагач, саксаул, лагман, манты, плов* va hokazo.

Semantik tafovutlar sifatida o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarda ma‘no torayishi, kengayishi yoki o‘zgarishi hollari kuzatiladi. Masalan, *ruchka* so‘zi rus tilida qo‘lcha (kichkina qo‘l), tutqich, yozuv quroli kabi uchta ma‘noga ega, o‘zbek tilida esa bu so‘z faqat yozuv quroli ma‘nosida qo‘llanadi. Rus tilidan o‘zlashgan *kartmon* (karman, ya‘ni cho‘ntak) so‘zi esa o‘zining rus tilidagi haqiqiy ma‘nosidan chekinib, o‘zbek tilida butunlay boshqa ma‘no (pul solinadigan xaltacha) kasb etgan bo‘lsa, samovar so‘zi rus tilidagi birgina choy qaynatish idishi ma‘nosidan tashqari o‘zbek tilida qo‘shimcha ma‘no – choyxona ma‘nosini hosil qilgan.

O‘zbekcha va ruscha so‘zlarning ma‘nolari miqdor jihatidan ikkala tilda har doim ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi *o‘qimoq* so‘zi ham “o‘qimoq”, ham “o‘rganmoq” ma‘nolarini beradi. Rus tilida esa bu ikki ma‘no ikki xil so‘z (*читать, учить*) bilan ifodalanadi.

S.I.Ojegovning izohli lug‘atida *udmu* so‘zining 24 ta ma‘nosi berilgan, o‘zbek tilidagi *bormoq* so‘zi esa “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilishiga ko‘ra, oltita ma‘noga ega. Xuddi

shuningdek, O'TIL da *chiqmoq* so'zining 22 ta ma'nosi ajratilgan, rus tilidagi *выйти* so'zi esa 7 ta ma'noni bera oladi.

Umuman olganda, esa ko'p ma'nolilik xususiyati har ikkala tildagi so'zlarga ham xos bo'lib, ularning aksariyat qismi o'zbek tilida ham, rus tilida ham eng qadimgi leksik qatlamlarga mansubdir. Ayrim hollarda o'zbek tilidagi polisemantik so'zlarning bosh va hosila ma'nolari rus tilidagiga aynan mos keladi. Masalan: *oltin uzuk* – *золотое кольцо*, *oltin kuz* – *золотая осень*, *oltin qo'llar* – *золотые руки* yoki *temir eshik* – *железная дверь*, *temir iroda* – *железная воля*. Keltirilgan misollardagi *oltin*, *temir* so'zlari rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan birikmalarda ham bosh va hosila ma'nolarini saqlab qolgan. Biroq tarjimada har doim ham bunday ayniyat vujudga kelavermaydi. Ba'zan bir tushunchani ifodalovchi so'zlarning o'zbek va rus tillaridagi me'yorlariga xos bosh leksik ma'nolari bir xil bo'lgani holda, ulardan hosil qilingan yangi ma'nolar ikki tilda bir-biriga mutlaqo muvofiq kelmaydi. Masalan, o'zbek tilida qozonning tutqichlari shaklan quloqqa o'xshash bo'lgani sababli, o'zbeklar tilida bu tushuncha ham *quloq* deb ataladi. Ruslar esa bu o'rinda tutqich ma'nosidagi *ruchka* so'zini qo'llaydilar, "*uxo kotla*" degan birikma esa rus tilida butunlay mantiqsiz va kulgili bo'lib eshitiladi. Xuddi shuningdek, rus tilidagi *нос корабля* ("*kemaning burni*"), *глухая ночь* ("*kar tun*") kabi birikmalar ham tilimizda mavjud emas va biz bu o'rinda, tabiiyki, boshqa so'zlardan foydalanamiz: *kemaning tumshug'i*, *jimjit tun*.

Demak, rus va o'zbek tillari leksikasini qiyoslashda so'zlardan emas, kattaroq birliklardan, aniqrog'i, gap va matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, xalq og'ozaki ijodi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelar ekan, asrlar davomida yashab, takomillashib, kengayib, boyib boraveradi. O'zbek tili turlicha iboralar, maqollar va turg'un birikmalarga boy bo'lib, ularda xalqimizning tarixi, madaniyati, urf-odati va ma'naviyati o'z ifodasini topgan.

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, yaxlit bir ma'no ifodalaydigan lug'aviy birliklarni biz iboralar yoki frazeologizmlar yoxud frazeologik birliklar deymiz. Odatda, iboralar ma'nosi bir so'z (leksema)ga teng keladigan birliklar sifatida baholanadi. To'g'ri, o'zaro birikib, turg'un birikmani, ya'ni iborani tashkil qilgan birliklar asosan yaxlit bir ma'no, bir tushunchani ifodalaydi, ammo bunda leksemadagidan ortiqroq bo'yoqlar, bo'rttirmalar mavjud. Shuning uchun leksik ma'no frazeologik ma'noga teng bo'lolmaydi. Aks holda bir tushunchani ifodalash uchun iboralardan foydalanib o'tirmas edik.

Barcha tillarda bo'lganidek, rus tilining leksik tarkibida ham iboralar mavjud bo'lib, ular nutqda turlicha mazmun va ma'no bo'yoqlarini olgan holda qo'llanadi.

O'zbek va rus tillaridagi iboralarning tuzilishi va tarkibi, o'zaro qiyoslanganda, ular o'rtasida quyidagi o'xshashliklar borligi aniqlanadi: 1) Har ikkala tilda ham iboralar ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topadi: *adabini bermoq* – *показать кузькину мать*; 2) so'z birikmasi yoki gapga teng keladi: *Biri bog'dan kelsa, ikkinchisi tog'dan keladi.* – *Один про Фому, а другой про Ерёму*; (Bu o'rinda iboralarning aynan tarjimasini emas, rus tilidagi ekvivalentlari berildi) 3) Har ikkala tilda ham iboralar bir butun lug'aviy birlik holatida bo'ladi va ularning tarkibidagi so'zni o'zgartirib bo'lmaydi. 4) Har ikki tilda ham frazeologik birliklar biror sintaktik vazifada kela oladi: *U doim rahbarlarning oldida dumini likillatadi.* – *Он всегда вертит хвостом перед начальниками.* 5) Har ikki tilda ham iboralar nutq jarayonida hosil qilinmaydi, balki tilda tayyor lisoniy birlik sifatida yashaydi.

O'zbek va rus tillaridagi frazeologizmlar semantik jihatdan o'zaro qiyoslanganda, quyidagi holatlar namoyon bo'ladi:

Ayrim o'zbekcha iboralar rus tilidagi iboralarga ham shaklan, ham ma'nosi bilan muvofiq keladi: *pashshaga ham ozor bermaydi* – *и мухи не обидит, ko'z qorachig'idek asramoq* – *бережь как зеницу ока, tera sochi tikka bo'ldi* – *волосы дыбом*;

O'zbek va rus tillarida bir xil ma'no ifoda etadigan iboralar tarkibidagi obyekt vazifasini o'taydigan so'z turlicha bo'ladi: *birovning nog'orasiga o'ynamoq* – *плясать под чужую дудку, rangida rang yo'q* – *на нём лица нет, boshi oqqan tomonga* – *куда глаза глядят*;

XULOSA

Har ikkala til iboralari ma'noviy jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning tarkibidagi so'zlar bir-biriga mutlaqo muvofiq kelmaydi. Bunday iboralarda mahalliy va milliy bo'yoqlar turlicha bo'ladi: *Eski hamtom, eski tos.* – *Тот же Санька на тех же санках. То'rt tomon qibla* – *скатертью дорога. Nozik yeridan ushlamoq* – *прижать к стенке. O'zi yemas, itga bermas.* – *И сам не ам, и другим не дам. Ali Xo'ja- Xo'ja Ali* – *Что в лоб, что по лбу.* Bunday iboralar ko'pchilikni tashkil etadi.

Shakldoshlik, ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, hamda zid ma'nolilik hodisalari barcha leksik birliklar kabi har ikkala til iboralariga ham xosdir. Masalan, rus tilidagi *"нускать немуха"* iborasi ham *"qo'shiq aytish jarayonida ingichka tovushni berish"*, ham *"o't qo'ymoq, kulini ko'kka sovurmoq"* ma'nolarida qo'llanib, bu ikki ma'no o'rtasida shakldoshlik munosabati mavjud. *"Склонять голову"* iborasi esa ko'p ma'noli hisoblanadi, chunki ushbu ibora *"yutqizmoq, yengilmoq"* va *"bosh egmoq, ya'ni hurmat qilmoq"* ma'nolarida qo'llanadi. *"Засучив рукава"* (yeng shimarib) hamda *"в поте лица"* (terga botib) iboralari rus tilida o'zaro ma'nodoshlik munosabatini yuzaga keltirsa, *"с открытой душой"* (ochiq ko'ngillik bilan) va *"с камнем за пазухой"* (orqasiga tosh yashirib) iboralari ma'noviy zidlikni hosil qiladi.

Tadqiqotdan ko'rinadiki, hozirgi o'zbek adabiy tilida rus tilidan va shu til orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar so'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra qariyb 50%ni tashkil etadi. Tilimiz leksikasi tarkibidagi ruscha-baynalminal so'zlar ilmiy-texnikaviy adabiyotlarda ham, og'zaki nutqda ham faol so'zlar qatorida qo'llanadi. O'zlashma so'zlar bilan rus tilidagi so'zlar o'rtasida ma'lum farqli jihatlar mavjudligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov O. Safaev A. Jamolxonov. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. T., 1986.
2. Киссен И.А. Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков. Т., 1979.
3. Absalamova, G. Sh. (2022). VIEWS OF FRENCH RENAISSANCE THINKERS ON CHILD UPBRINGING. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 1), 12-17.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1965.
5. Rahmatullaev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. T., 1993; 19-22-betlar.
6. Reshetov V.V., Reshetova L.V. Rus tili grammatikasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1968.
7. Современный русский язык. Под ред. Белошапковой. М.: «Высшая школа», 1989.